

**AYOL OBRAZINING LINGVOMADANIY TRANSFORMATSIYASI: INGLIZ  
VA O'ZBEK BADIY MATNLARI QIYOSIY TAHLILI ASOSIDA**

**Gaffarova Durдона Gafforovna,**  
*University of Business and Science*  
*Ingliz tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi*  
[durdonagafforova16@gmail.com](mailto:durdonagafforova16@gmail.com)

**Karimova Mahliyo Adhamjon qizi,**

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada ingliz va o'zbek badiiy adabiyotida ayol obrazining lingvomadaniy xususiyatlari hamda ularning tarjima jarayonida yuzaga keladigan transformatsiyalari qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda ayol obrazi madaniy konsept sifatida talqin qilinib, uning semantik, pragmatik va stilistik qatlamlari tarjimada qanday o'zgarishga uchrashi yoritiladi.*

***Kalit so'zlar:** ayol obrazi, lingvomadaniy transformatsiya, badiiy tarjima, madaniy konsept, semantik va pragmatik ekvivalentlik.*

***Аннотация.** В данной статье проводится сравнительный анализ лингвокультурных особенностей образа женщины в английской и узбекской художественной литературе, а также трансформаций, возникающих в процессе их перевода. В исследовании образ женщины интерпретируется как культурный концепт, и освещается, каким образом его семантические, прагматические и стилистические слои претерпевают изменения при переводе.*

***Ключевые слова:** образ женщины, лингвокультурная трансформация, художественный перевод, культурный концепт, семантическая и прагматическая эквивалентность.*

***Annotation:** This article provides a comparative analysis of the linguocultural features of the female image in English and Uzbek fiction, as well as the transformations that occur in the process of translation. In the study, the female image is interpreted as a cultural concept, and particular attention is paid to how its semantic, pragmatic, and stylistic layers undergo changes in translation.*

***Keywords:** female image, linguo cultural transformation, literary translation, cultural concept, semantic and pragmatic equivalence.*

**Kirish.** Globalizatsiya va madaniyatlararo muloqot jarayonlarining kuchayishi badiiy tarjimaning ahamiyatini yanada oshirmoqda. Ayniqsa, milliy-madaniy yuklamaga ega bo'lgan obrazlar tarjimasini tarjimashunoslikda murakkab masalalardan biri hisoblanadi. Shunday obrazlar sirasiga ayol obrazi ham kiradi. Ayol obrazi badiiy matnda nafaqat individual xarakter, balki muayyan xalqning madaniy qadriyatlarini, ijtimoiy me'yorlari va mentalitetini aks ettiruvchi konsept sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois ingliz va o'zbek adabiy matnlarida ayol obrazining lingvomadaniy transformatsiyasini o'rganish dolzarb ilmiy masala sanaladi.[2]

**Ayol obrazi lingvomadaniy konsept sifatida.**

Lingvokulturologiya nuqtai nazaridan ayol obrazi til va madaniyat kesishgan nuqtada shakllanadigan murakkab konseptdir. U leksik birliklar, frazeologizmlar, baholovchi so'zlar hamda nutq modellari orqali ifodalanadi. Ingliz adabiyotida ayol obrazi ko'pincha mustaqil fikrlash, shaxsiy tanlov va individualizm bilan bog'liq holda

tasvirlansa, o‘zbek adabiyotida ayol obrazi sabr, fidoyilik, oilaparvarlik va ma’naviy barqarorlik konseptlari bilan uyg‘unlashadi.[6]

Mazkur tafovutlar tarjima jarayonida ayol obrazining lingvomadaniy transformatsiyasiga olib keladi. Tarjimon manba va nishon madaniyat o‘rtasidagi farqlarni hisobga olgan holda muayyan strategiyalarni tanlashga majbur bo‘ladi.

**Ingliz badiiy matnlarida ayol obrazi va uning o‘zbekcha tarjimasini.**

Jeyn Ostinning "Andisha va G‘urur" romanida Elizabet Bennet obrazi ingliz jamiyatidagi ayolning aqliy salohiyati va ijtimoiy faolligini ifodalaydi. Uning nutqida kinoya, mulohazalilik va mustaqil pozitsiya ustuvorlik qiladi. O‘zbekcha tarjimada ushbu xususiyatlarni saqlab qolish uchun ko‘pincha stilistik va pragmatik transformatsiyalarga murojaat qilinadi.[5]

Masalan, ingliz tilidagi kinoyaviy ifodalar o‘zbek tilida ba‘zan ochiqroq, eksplisit shaklda beriladi. Bu holat ayol obrazining semantik yadrosini saqlagan holda, uning ifoda usulida madaniy moslashuv yuz berganini ko‘rsatadi.

Misol uchun, kinoya va mulohazalilikni ko‘rsatuvchi “Andisha va g‘urur” asaridan parchani olsak:

*“I could easily forgive his pride, if he had not mortified mine.”*[1]

*“Men uning g‘ururini osongina kechirgan bo‘lardim, agar u mening g‘ururimni kamsitmaganida.”* (adabiy moslashgan)

*“Agar u meni ranjitmaganida, uning g‘ururini kechirishim qiyin bo‘lmas edi.”* (stilistik moslashuv)

*“U meni kamsitmaganda edi, balki uning mag‘rurligini ham kechirar edim.”* (Eksplisit, kuchaytirilgan)

Adabiy moslashuvda kinoya va parallelizm bor

2–3 tarjimada esa:

emotsional rang kuchaygan ;

madaniy moslashuv kamsitish va ranjitish yaqqol aks ettiradi

Bu esa pragmatik transformatsiya hisoblanadi.[3]

2-misolda Elizabet Bennetning quyidagi fikri mustaqil pozitsiya va aqliy salohiyatini ko‘rsatadi:

*“I am only resolved to act in that manner, which will, in my own opinion, constitute my happiness.”* [1]

Tarjima 1:

*“Men faqat o‘zimni baxtli qiladigan yo‘l bilan harakat qilishga qaror qilganman.”*

Tarjima 2:

*“Men o‘zimni baxtli qiladigan tarzda yashashni tanladim.”*

Tarjima 3 (kuchliroq, zamonaviy):

*"Men o'z baxtimni o'zim belgilayman."*

Jeyn Ostin yaratgan Elizabet Bennet obrazi nutqida kinoya, intellektual mustaqillik va ijtimoiy faollik muhim o'rin tutadi. Tarjima jarayonida ushbu xususiyatlarni saqlab qolish uchun ko'pincha stilistik va pragmatik transformatsiyalar qo'llaniladi. Xususan, ingliz tilidagi implitsit kinoya o'zbek tilida ko'pincha eksplitsit shaklga o'tadi, bu esa obrazning semantik yadrosini saqlagan holda uning ifoda uslubida madaniy moslashuv yuz berishini ko'rsatadi.[10]

### **O'zbek badiiy matnlarida ayol obrazi va uning inglizcha tarjimasi.**

O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asarida ayol, avvalo, ona va ma'naviy tayanch sifatida tasvirlanadi. Ushbu obrazda milliy qadriyatlar, sabr-toqat va fidoyilik yetakchi o'rin tutadi. Ingliz tiliga tarjima jarayonida esa mazkur tushunchalarni to'liq ifodalash muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi.[2].

Xususan, o'zbek tiliga xos hissiy-ekspressiv birliklar va madaniy presuppozitsiyalar ingliz tilida ko'pincha izoh, kompensatsiya yoki semantik kengaytirish orqali beriladi. Natijada ayol obrazi ma'lum darajada transformatsiyaga uchrasa-da, uning asosiy konseptual mohiyati saqlab qolinadi.

Misol uchun:

*"Onam har safar yo'lga chiqishimdan oldin duo qilib qolardi."*

Tarjima variantlari:

#### **Adabiy:**

*"My mother would pray for me every time I set off."*

#### **Kompensatsiya:**

*"Every time I left home, my mother would give me her heartfelt blessing."*

#### **Semantik kengaytirish:**

*"Before every journey, my mother would offer sincere prayers for my safety."*

#### **Lingvistik tahlil:**

*"duo qilib qolardi"*: iborasi

diniy va madaniy presuppozitsiyani ifodalab beradi

#### **Ingliz tilida esa**

*"Pray"* so'zi yuqoridagi gapning ma'nosini ifodalab berish uchun yetarli bo'lmaydi, balki *blessing, sincere, for my safety* kabi iboralarni qo'shish gapni mufassal tarzda yoritib bera oladi.

2 va 3-tarjimalarda kompensatsiya va semantik kengaytirish misollarini ko'rish mumkin.

### **Lingvomadaniy transformatsiya turlari.**

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, ayol obrazi tarjimasida quyidagi lingvomadaniy transformatsiyalar keng qo‘llanadi:

- Semantik transformatsiya – leksik ma’noni kengaytirish yoki toraytirish;
- **Pragmatik transformatsiya** – o‘quvchi qabulini hisobga olgan holda nutqni moslashtirish;
- **Stilistik transformatsiya** – muallif uslubini nishon til imkoniyatlari orqali qayta yaratish;
- **Madaniy adaptatsiya** – milliy realiyalarni tushunarli shaklda berish.

**Xulosa.** Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ayol obrazining lingvomadaniy transformatsiyasi tarjima jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Ingliz va o‘zbek adabiy matnlarida ayol obrazi turli madaniy konseptlar asosida shakllangan bo‘lib, bu holat tarjimada semantik, pragmatik va stilistik o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi. Tarjimonning madaniyatlararo kompetensiyasi ayol obrazining adekvat va to‘laqonli talqinini ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Austen, J. (2012). *Pride and Prejudice*. London: Penguin Books, 432 p.
2. Hoshimov, O‘. (2018). *Dunyoning ishlari*. Toshkent: Sharq nashriyoti, 256 b.
3. Nida, E. A. (2001). *Language and Culture: Contexts in Translating*. Shanghai: Foreign Language Education Press, 192 p.
4. Newmark, P. (1988). *A Textbook of Translation*. New York: Prentice Hall, 292 p.
5. Baker, M. (2011). *In Other Words: A Coursebook on Translation*. London: Routledge, 368 p.
6. Vinay, J. P., & Darbelnet, J. (1995). *Comparative Stylistics of French and English: A Methodology for Translation*. Amsterdam: John Benjamins, 358 p.
7. Toury, G. (2012). *Descriptive Translation Studies and Beyond*. Amsterdam: John Benjamins, 311 p.
8. Halliday, M. A. K. (1994). *An Introduction to Functional Grammar*. London: Edward Arnold, 434 p.
9. Safarov, Sh. (2008). *Pragmalingvistika*. Toshkent: Fan nashriyoti, 300 b.
10. Karimov, N. (2016). *Tarjima nazariyasi asoslari*. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 240 b.